

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) 464

ADABIYOTSHUNOSLIK

N.M.Uluqov, N.Siddiqova

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

M.M.Rakhmatova

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili 475

Sh.B.Xo'jayeva

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik 479

R.R.Mamatov

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari 483

D.M.Uralova

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni 486

N.A.Saidova

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari 489

K.U.Kubayev

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 493

U.Q.Muminova

"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati..... 497

M.Q.Narziqulov

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli 502

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma" sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 512

N.Y.Xolmatova

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari 515

Y.I.Nishanov

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari 520

Sh.K.Xashimova

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar 523

Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari..... 527

B.I.Dexqonov

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari..... 531

N.A.Rasulova

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash 535

M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) 540

G.Xonkeldiyeva

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar..... 543

X.Abdurahmonov

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati 546

N.Y.Ortiqova

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi..... 550

M.M.Abdulxayeva

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari..... 556

N.T.Mutodov

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar 560

Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati 567

M.V.Nasridinov

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari..... 570

G.Yusupova

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi 574

TEMUR PO'LATOV IJODI HAQIDAGI BA'ZI MULOHAZALAR
НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ТВОРЧЕСТВЕ ТЕМУРА ПОЛАТОВА

SOME REFLECTIONS ON THE WORK OF TIMUR PULATOV

Xashimova Shoira Kosimovna¹

Xashimova Shoira Kosimovna¹

– Farg'ona davlat universiteti rus tili metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada iste'dodli yozuvchi Temur Po'latov ijodiga bag'ishlangan. Kirish qismida qo'yilgan muammoning zarurati va dolzarbligi ochib berilgan. Adabiyotlar bo'limida esa rus va o'zbek olimlaridan Olga Alimova, Elvira Abutalieva, Qozoqboy Yo'ldoshev Eleonara Shafranskaya, Aziza Baltabaeva kabi olimlar ishlari tahlil etilib, ular e'tibor bergan jihatlarga munosabat bildiriladi. Shu tariqa ishning metodologiyasi belgilab olingan. Tahlil natijasidagi xulosalar to'rtta bandda sanab ko'rsatilgan. Mavzu bo'yicha tahlillar qismida esa Temur Po'latovning Qo'riqchilar minorasi nomli qissasi bosh qahramoni Vali bobo qisman tahlil etiladi. So'ngra G'ordagi qiz" nomli hikoya haqida so'z yuritiladi. Bunda roviy nutqi orqali Kamilla, Ester, Akman obrazlariga berilgan badiiy tasvir, munosabatga e'tibor qaratilgan. Yozuvchining voqelikni badiiy idrok etishi, umuminsoniy qadriyatlar, Sharq va G'arb madaniyatini yaxlit tushunishi hamda anglashi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Maqola oxirida esa Temur Po'latov asarlarida umuminsoniy muammolarni, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan an'analar misolida zamonaviy kishilar muammosini yoritishga intilgani, bunda kichik obrazning voqealar rivoji davomida katta, yetakchi obraz sanalgan Vali bobo ruhiyatida ta'sirini ifodalashga oid o'ziga xos uslubi borligi hamda shu yo'l bilan o'zlikni anglash muammosini ochib bergani ta'kidlangan. Hikoya bo'yicha tahlil natijasi o'laroq oila, farzand munosabatlari orqali kishilar ruhiyatidagi ma'naviy yolg'izlik muammosiga diqqat qilingani ko'rsatilgan.

Аннотация

Статья посвящена творчеству талантливого писателя Темура Пулатова. Выявляется необходимость и актуальность поставленной во введении проблемы. В разделе литературы анализируются работы российских и узбекских ученых, таких как Ольга Алимова, Эльвира Абуталиева, Казахбой Юлдашев, Элеонара Шафранская, Азиза Балтабаева, и высказываются моменты, на которые они обращают внимание. Таким образом, была определена методика работы. Выводы анализа перечислены в четырех абзацах. В аналитическом разделе по данной теме частично анализируется главный герой рассказа Темура Пулатова «Сторожевые башни». Потом речь идет о рассказе под названием «Девушка в пещере». При этом обращено внимание на художественный образ и отношение к персонажам Камиллы, Эстер, Акмана через речь рассказчика. Выдвигаются идеи о художественном восприятии писателем действительности, общечеловеческих ценностях, целостном осмыслении и осмыслении восточной и западной культуры. В конце статьи Темура Пулатов стремится осветить общечеловеческие проблемы, проблемы современного человека на примере традиций, сформировавшихся в ходе длительного исторического развития, и свой неповторимый стиль выражения влияния маленького образа на психику Вали бобо, который считался большим, ведущим образом в ходе развития событий, отмечается, что он существует и тем самым выявил проблему самосознания. В результате анализа повести показано, что через вопросы семьи, родительские и детские отношения обращалось внимание на проблему духовного одиночества в психике людей.

Abstract

The article is devoted to the work of the talented writer Temur Pulatov. The necessity and relevance of the problem posed in the introduction are revealed. The literature section analyzes the works of Russian and Uzbek scientists, such as Olga Alimova, Elvira Abutalieva, Kazakhboy Yuldashev, Eleonara Shafranskaya, Aziza Baltabayeva, and expresses the points to which they pay attention. Thus, the methodology of work was determined. The conclusions of the analysis are listed in four paragraphs. In the analytical section on this topic, the main character of Temur Pulatov's story "Watchtowers" is partially analyzed. Then we are talking about a story called "The Girl in the Cave". At the same time, attention is drawn to the artistic image and attitude to the characters of Camilla, Esther, Ackman through the narrator's speech. Ideas are put forward about the writer's artistic perception of reality, universal values, holistic understanding and comprehension of Eastern and Western culture. At the end of the article, Temur Pulatov seeks to highlight universal human problems, the problems of modern man on the example of traditions formed during a long historical development, and his unique style of expressing the influence of a small image on the psyche of Vali Bobo, which was considered large, leading in the course of events, it is noted that it exists and thereby revealed the problem of self-consciousness. As a result of the analysis of the story, it is shown that through family issues, parental and child relationships, attention was paid to the problem of spiritual loneliness in the psyche of people.

Kalit so'zlar: hikoya, qissa, obraz, dialog, roviy, ramz, Temur Po'latov, mifopoetika, badiiy-estetik g'oya.

Ключевые слова: рассказ, повесть, образ, диалог, рассказчик, символ, Тимур Пулатов, мифопоэтика, художественно-эстетическая идея.

Key words: short story, novel, image, dialogue, narrator, symbol, Timur Pulatov, mythopoetics, artistic and aesthetic idea.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotda iste'dodli Temur Po'latovning alohida o'rni bor. Uning asarlarida O'zbekiston xalqi, tabiati va bu erdagi urf odatlarni, islomiy qadriyatlarni o'ziga xosligini ifodalashga urinadi. Natijada asarlari, avvaliga, sobiq ittifoq hududida, so'ngra, dunyo xalqlari orasida keng yoyila boshladi. Uning asarlari Sharqona badiiy falsafa, o'zbek shaxsi ruhiyatidagi fidoiylilik va sokinlik, kishilarning bashoratga moyilligi kabi fazilatlar o'quvchilarga yangi badiiy olam shakllanayotganini ko'rsatar edi. Lekin adabiyotshunoslikda yozuvchi ijodi haligacha yetarli bahosini olgani yo'q. Aynan shu xususiyat maqolada yoritilayotgan ilmiy muammoning dolzarbligini izohlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA

Aslida adabiyotshunoslikda Temur Po'latov ijodi haqidagi tadqiqotlar ancha oldin boshlangan. Xususan, Alimova Olga Xatamovna Temur Po'latov ijodida falsafiy muammolarning badiiy ifodalanishi muammolarini birinchilardan bo'lib tadqiq etgan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, qissadagi barcha personajlar ikki xususiyatga ega, «soqchilar minorasidagi birodarlar» ambivalentlik holati: bir tomondan minorada turib soqchilik qilish burchi (bu so'zsiz metaforadir), ikkinchi tomondan esa hayotning o'ziga xos hukmidir. Matn shunday qurilganki, qissaning har bir personaji, har bir iborada ikki xil qarash mavjud bo'lib, bu rakurslarning aralashuvi groteskni hosil qiladi[2].

Darhaqiqat, yozuvchi roman qissalarida voqelikka ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin. Shunga o'xshash ammo, endi kengroq ma'nodagi xulosani biz Abutaliyeva Elvira Irikovna ishida ham uchratdik. U Temur Po'latov va Temur Zulfiqorov nasriy materiallari misolida makon va zamon masalasini tadqiq etgan hamda quyidagi xulosaga kelgan: Temur Po'latov va Temur Zulfiqorov asarlarida sivilizatsiyalar bo'laklari, din, falsafa, olamni badiiy anglashning ulkan an'analari: Osiyo va Rossiya, islom va xristianlik, Sharq va G'arb uchrashadi"[1]. Bu erda tadqiqotchi yaxlit olamning ikki pallasiga ko'proq diqqat qilgan. Lekin yozuvchilarning xususiy jihatlariga kamroq to'xtalgan.

Professor Q.Yo'ldoshev esa O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, ijodiy erkinlikka bir qadar yo'l berilgach, bu yo'nalishdagi izlanishlar qayta yuz ko'rsatdi va o'zbek adabiyoti taraqqiyotining keyingi davri to'lig'icha modernistik tajribalar bilan yonma-yon kechyapti. R. Parfi, O. Muxtor, T. Po'latov deya yozuvchining ijodi modernistik tajribalarga boyligini ta'kidlaydi [5, 152].

Yozuvchi asarlarida mifopoetik xususiyat borligi haqidagi fikrni so'nggi yillarda yozuvchi ijodi haqida yirik tadqiqot olib borgan Shafranskaya Eleonora Feyodorovna ilgari suradi. To'g'ri, olimo yozuvchi ijodi bo'yicha jiddiy izlanish olib borgan, yozuvchi asarlarining mifopoetikasiga oid tadqiqotlar unga tegishli bo'lib, unda yozuvchi asarlarini mifopoetika nuqtai nazardan o'rgangan [8]. Olimo ikkita ish e'lon qilgan birinchi doktorlik dissertatsiyasi ishi bo'lib, uning uchinchi bobi to'lig'icha T.Po'latov ijodini, to'rtinchi bobda boshqa yozuvchilar bilan birgalikda tadqiq etgan. Ammo keyinroq muammoni atroflicha o'rganishga harakat qiladi va monografiya ham chop ettiradi [10]. Bundan tashqari, olimo darsligidagi 122 mavzuni Temur Po'latov qrimtatarlar haqidagi trilogiyasi deb nomlaydi [9]. Bunda trilogiya mavzu va g'oyasi, ifoda uslubi haqida fikr yuritiladi.

Baltabaeva Aziza Mannobovna O'zbekistonda rus tilida ijod qiluvchi yozuvchilar ijodida qissa janri rivojlanishi mavzusida izlanish olib borib, "O'zbekiston rusiyzabon adabiyotidagi turli modifikatsiyalari e'tiborga olinmagan, rus tilidagi qissalarning milliy adabiyot bilan o'zaro aloqadagi janr hosil qiluvchi kategoriyalari hamda o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilmagan degan qarorga keladi [3]. Asli O'zbekistonlik bo'lgan yana bir olimo G.Gapirova o'zining doktorlik (DSc) dissertatsiyasida yozuvchi nasrini tadqiq etar ekan, "Hayot va o'lim almashinishi haqidagi g'oya asosida T.Po'latovning o'ylantirgan butun olam muammosi hayot inson — o'lim yotibdi, degan to'xtamga keladi[4, 229].

NATIJA VA TAHLILLAR

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuvchi ijodiga yondashuvlar turlicha bo'lib, eng muhimlari 1) ikki xil dunyoqarash, voqelikka ikki tomondan yondashuv ijodkor ijodining yetakchi xususiyati ekanligi; 2) mifopoetikaga urg'u berish; 3) Bu bilan yozuvchi asarlarida olamning maksimal darajadagi tasvir chegarasini olishga harakat qilganligi; 4) modernistik yozuvchi sifatida asarlari metaforik xususiyatga ega hisoblanishi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Haqiqatan ham, o'zbek adabiyotida Temur Po'latov o'tgan asrning oltmishinchi yillar oxiri, yetmishinchi yillar boshidanoq noan'anaviy ifodaga intilib, o'ziga xoslikka erishadi. Ayniqsa, epizod sifatida olingan syujetning uzviy halqasi, yoki biror obraz asar oxiriga kelib yetakchi o'ringa chiqishi yoki asosiy obrazga ta'sir etib, voqealar rivojini o'zgartirib yuborishi mumkinligini Temur Po'latov ijodiy manerasining yana bir jihati sifatida olish mumkin. Masalan, uning Soqchilar minorasi nomli qissasidagi qochoq epizodik obrazi asar oxirida Vali bobo dunyoqarashida o'zgarish yasashga erishadi. Yoki shu qissadagi qasr Vali boboning qasr ichida qo'rqmasdan yurishi bilan bog'liq tasvir, keyinchalik uning mazkur qasr ramziylikka, u anglatgan ma'no esa tarixiylik tamoyili asosida Vali bobo obrazida milliy tarixga hurmat hissini shakllantirishga xizmat qilgan. Ko'rinadiki yozuvchi qissalarida obrazlar o'rtasidagi munosabat va ularning o'zaro ta'siri orqali jamiyat, xalq tarixi, ijtimoiy hayotdagi adolatsizlik haqida fikr bildiradi. Vali bobo va uning birodarlari aslida qadimgi qo'rg'onni qo'riqlaydi. Shu yerda qo'rg'on garchi qamoqxona bo'lsa-da, u ramziylik kasb etib, Turkistonning qadim tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyat timsoliga aylanadi. Vali bobo ana shu qadriyatlarning himoyachisiga aylanishi asar oxirida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu yerda bosh qahramonni borliqni anglash, hayotni tushunishi, tiriklik va o'lim o'rtasidagi eng haqiqiy maqsad nima ekanligi qiziqtirishi ochiladi.[6]

Darhaqiqat, yozuvchining oddiy hikoyasidan tortib yirik romanlarigacha bo'lgan asarlari zamirida insonning borliqdagi o'rni, tirikligi, baxti va o'limi bilan bog'liq global muammolar zanjiri sifatida berib boriladi. Masalan, G'ordagi qizcha nomli hikoyasida Kamilla ismli qizning og'ir o'tgan bolaligi, roviyning javobsiz muhabbati, Kamillaning orzusi va o'z baxtiga erishgani yorqin ifodalangan. Lekin bu yerda shunchaki ifodalar emas. Unda umuminsoniy muammo, ma'naviy yolg'izlik yoritilgan.

Hikoya quyidagi ekspozitsiya bilan boshlanadi: *Rojdestvo (milod, xristianlarning Iso payg'ambar tavalludiga bag'ishlab o'tkazadigan diniy bayrami) bayramidan bir kun oldin tunda isitilmagan xonada keksa Ester hola tinchgina jon berdi. Ushbu musibatli hodisa qo'shnilar tomonidan oddiy holdek qabul qilindi. Men esa juda hayajonga tushdim. Chunki dafn marosimiga uzoqdan Ester holaning qizi Kamilla kelgandi.*

Men qabrison to'siqlari ortiga yashiringancha yangi do'nglik uzra go'zal, biroz to'lishgan o'ttiz yoshli Kamilla qanday egilishini kuzatardim. Uning borlig'ida sokinlik va hayotidan mamnunlik sezilib turardi [7].

E'tibor qilinsa, o'lim yuz bermoqda, ammo hech kim undan jiddiy qayg'u tushmaydi. Hatto, qizi ham buni ko'pdan kutgandek taassurot qoldiradi. Faqat roviy Kamilla kelishidan hayajonga tushdi, xolos. Shu yerdayoq biz Temur Po'latov nasriga xos bir nechta xususiyatni ko'rishimiz mumkin. Bu, avvalo, hayot va o'lim munosabatlari, ular yaxlit holda kishilik jamiyatining ikki qirrasini ekanligini ko'rsatadi, ikkinchidan, o'lim va tiriklik aspektidan qaralsa, hammaning o'z vazifasi bor, Kamilla majburiyat yuzasidan, go'rkov odat va marosim nuqtai nazaridan, roviy esa o'zining shaxsiy kechinmalarini ifodalash ilinjida bo'ldi. Uchinchidan, bechora Esterning o'limiga qayg'u chekadigan odamning yo'qligi, asarda modernizm unsurining mavjudligini bildiradi. Ana shularning o'ziyoq syujetdagi tugunni keltirib chiqaradi. Ya'ni nima uchun roviy dafn marosimida ishtirok etmayapti, nimaga un yashirin holda ayolni kuzatmoqda kabi savollarga javob topish asardagi voqealar rivojining zimmasiga tushadi. Natijada yozuvchi mazkur muammolarga hikoyada yechim topa boshlaydi.

"Nihoyat o'zimdagi tortinchoqlikni yengib so'radim:

– Kamilla, g'orga yashirinib olganingiz va men sizni tutib olganim otangizga topshirganim yodingizdami? O'shanda mendan jahlingiz chiqqan edi. Kechirasiz, dedim o'z hayajonlarimni yashirgancha, o'zimni tashvishsiz tutib.

– Ey, tentakvoy! dedi u samimiy kulgancha. O'zingizni bosing, men sizni allaqachon kechirib yuborganman... Mening bolalikdagi sho'xliklarim keyinchalik qimmatga tushgan meni oilamdan ayirib qo'yishdi, o'shandan beri men na otamni, na onamni ko'ra oldim... Ammo hammasi ortda qoldi, hozir men erim va farzandlarim bilan baxtli yashayapman. Hozir ularning yonlariga shoshyapman...

Kamilla shunday degancha taksiga o'tirdi, menga qo'l silkitdi va biz ajralishdik, chamasi bu gal butunlay ketdi. Men o'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Qalbimda achchiq alam va bo'shliq bor edi. Bu balki shahar chetidagi o'sha g'orda yana bo'lish istagidir?

Qor yog'ishiga va junjikayotganimga qaramasdan, qorong'i, xilvat ko'chalarda odamlarda yashiringancha shahar chetiga, u yerdan tor so'qmoq bo'ylab qoya yonidan g'orga yo'l oldim.

Tasvirda uzoq vaqt bir-birini ko'rmagan, bolalikdagi sobiq do'stlarning qisqa uchrashuvi berilgan, xolos. Ikkalasi ham yoshi katta, oilali kishilar bo'lib, ayol o'z olamiga, yigit esa bolalikdagi o'sha voqea ta'sirida yashaydi. Mazkur voqea umumiy syujetda ikki xil dunyoqarash hamda ikki xil turmush tarziga ega odamlarning hayotiga oid qimmatli voqea yuz bergan. Bu bolalikdagi o'zaro mehrdan keyin boshlangan begonalik bilan bog'liq hodisa sanaladi.

Garchi asar yaratilgan vaqt turg'unlik paytiga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, Temur Po'latov turli metod va uslublar sintezini amalga oshirdi. Badiiylikning neoklassik o'lchamlariga muvofiq tasvirlarni bera boshladi. Bu davrda Ko'plab yozuvchilar ijodida qahramon ichki olamini tasvirlashda lirizm bilan psixologizm o'zaro qo'shilishi kuzatiladi. Nasr iqroriy xarakter ola boshlagan. Yozuvchilar psixologik tahlil usuli sifatida qahramon ichki monologiga ko'proq e'tibor berishgan"[4,305]. Natijada asar ta'sirchanligi ortadi. Chunki davr shunday ediki, shaxs o'z ichki olam bilan yolg'iz qolib, o'zi va odamlar, jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil etsagina, ma'lum bir maqsadga yetishi mumkin bo'lgan. Shu ma'noda yozuvchi ham mazkur hikoyada voqealarning keyingi bayonini retrospektiv syujetga aylantiradi, bosh qahramon ichki monologi sifatida bayon etadi. Bu bir tomondan asar kompozitsiyasiga rang baranglik beradi, ikkinchi tomondan esa o'quvchidagi o'zganing ichki olamini bilishga bo'lgan qiziqishga tayanadi. Bu ham adabiyotning odamlarga ta'sir etish usullaridan biri sanaladi.

Hikoyada Akman va Ester ismli er-xotin hamda ularning Kamilla ismli qizi, Akman o'z qizi Kamillaga dars o'tadigan yosh o'qituvchi bilan yurishi, Ester esa bu holdan azob chekishi, ammo na eriga, na qiziga va na boshqa kimsa erining xiyonatidan arz qilmasligini keltiriladi. Kamilla bunday vaziyatda eng ko'p iltirob chekadi, maktabda otasi bilan yashaydigan ayol unga azob berishi, dunyoda ota va onasining ahil, quvnoq yashashlari hamda hammalari birga baxtli bo'lishlarini orzu qilishi, hech qanday sharoit bo'lmasa-da g'orda erkin va baxtli yashashi, yaqinlarini ko'rishni istamasligi, dugona va do'stlarini g'orda bexavotir, tabiiy sharoitda baxtli yashash mumkinligini aytib, ularni bu yerga chorlagan maktubi roviyni to'liqlantiradi.

XULOSA

1. Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston xalq yozuvchisi Temur Po'latov asarlarida umuminsoniy muammolarni, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan an'analar misolida zamonaviy kishilar muammosini yoritishga intilgan. Bunda yozuvchi qo'llagan badiiy uslub Vali bobo ruhiyatida katta evrilishlarni yuzaga chiqardi. Unda o'zlikni anglashga intilish boshlandi.

2. Hikoyada o'tgan asrning yetmishinchi yillarida kishilar ruhiyatidagi ma'naviy yolg'izlik haqida dadil yozgan. Bu erdagi g'orni ham alohida topos sifatida olib, uning mifopoetik xususiyatini tahlil etish mumkin. Chunki ibtidoiy odamning yashash makoni, inson, jamoa sifatida ilk bor o'zini anglagan joyi, ikkinchi tomondan g'or topos sifatida doimo sirlilik xususiyatiga ega. Shuning uchun ham islomda Muhammad (s.a.v)ga ilk bor vahiy g'orda kelgani, Alisher Navoiy Farhodni g'ordagi hakimlar oldiga borganini shaxs kamolotidagi alohida bosqich sifatida tasvirlaydi. Shu ma'noda Temur Po'latovni ham o'zbek madaniyati an'analariga sodiq qolgan deyish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abutaliev E.I. Prostrantsvo i vremya v russkoyazqchnoy proze Sredney Azii: na materiale tvorchesva Tiura Pulatova i Timura Zulfikarova. Avtoref. diss. ...kan. filol. nauk. – Tashkent, 1993 g. 24 s. www.dissercat.com.
2. Alimova O.X. Xudojstvennoe voploshenie filosofskoy problematiki v tvorchestve Timura Pulatova. Avtoref. diss. kand.filol.nauk. – Moskva: MGPU, 1993. 24 str. www.cheloveknauka.com.
3. Baltabaeva A. M. O'zbekiston rus tilidagi adabiyotida qissa janri rivojlanishi. Filol.fan. bo'yicha falsafa doktor (PhD) diss. avtoref. 2020. – 42 b.
4. Garipova G.T. Prinsipy miromodelirovaniya v russkoy proze xx veka (neklassicheskaya paradigma xudojestvennosti). Diss. na soisk. ... doktora filol. nauk. Vladimir, VGU, 2021. 612 str.
5. Yo'ldoshev Q. YOniq so'z. Toshkent: YAngi asr avlodi, 2006. 548 b.
6. Pulatov T. Vladeniya. Izbrannoe proizvedeniya. V 2 t.Tom.2. Roman, povesti. Tashkent: Izd-vo lit. i iskusstva., 1991.
7. Pulatov T.I. Jizneopisanie stroptivogo buxarsa. Roman, povesti, rassказы. www.ozon.ru.
8. SHafranskaya E.Mifopoetika inopoetnokulturnogo teksta v russkoy proze XX-XXI veka. Avtoref. diss. ... dok fillog. Nauk. 2008. – 32 str. www/dissercat.com.
9. SHafranskaya E.F. Sovremennaya russkaya literatura: inoetnokulturnaya problematika. Uchebnik dlya Vuzov. — Moskva : Izdatelstvo YUrayt, 2020. — 194 s.
10. SHafranskaya E.F. Mifopoetika prozy Timura Pulatova: natsionalnye obrazy mira. – Moskva: Editorial URSS, 2005. – 160 str. ozon.ru.